



## “Involta” Ilmiy Jurnalni

Vebsayt: <https://involta.uz/>

### MAHALLALARDA OILAVIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI

**Yusupova Dildora**

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tadqiqotchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada mahallalarda hunarmandchilikni va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish iqtisodiyotni modernizatsiyalashdagi o' rni talqin qilinib uning iqtisodiy samaradorligini ko'rsatib berishga o'rinilgan. Unda hozirgi kunda Namangan viloyatida oilaviy tadbirkorlikni va hunarmandchilikni rivoji solishtirma usulda yilma yil tahlil qilingan. Muallif tomonidan mahallalarda hunarmandchilik va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha ayrim tavsiyalar taklif etilgan.

Kalit so'zlar: hunarmandchilik, oilaviy tadbirkorlik, kichik biznes.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается развитие ремесел в регионах, а также проблемы управления бизнесом. Теперь tadbirkorlikni interpretatsiya raboty, provodimoy v Uzbekistane dlya razvitiya remesel i prikladnogo iskusstva v drugie strany, razrabotki konkrnykh metodov analiza. Avtorom predlozhen model opredeleniya indeksa potentsiala konkurentosposobnosti malogo biznesa v regione.

**Ключевые слова:** ремесленничество, предпринимательство, малый бизнес.

**Summary:** This article discusses the development of crafts in the regions, as well as a business management issue. It is now tadbirkorlikni interpretation of the work being carried out in Uzbekistan for the development of crafts and crafts to other countries, the development of specific methods of analysis. In addition, the potential competitiveness of small businesses in the region in the article index to determine the model proposed by the author.

**Key words:** *crafts, entrepreneurship, small business.*

### **Kirish**

Bugungi kunda tadbirkorlikni rivojlantirish masalasiga mamlakatimiz rahbariyati katta e'tibor qaratmoqda. Shu jumladan mahallalarda oilaviy tadbirkorlik korxonalarining rivojlanishidagi yo'nalishlar iqtisodiy jihatdan samarali bo'lishi lozim. Bu yo'nalishlarning iqtisodiy samaradorligi darajasi ko'p omillarga bog'liqdir. Avvalambor, milliy hunarmandchilik bilan shug'ullanayotgan tadbirkorlar yoki oilaviy tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalarining ishlab chiqarayotgan mahsuloti yoki ko'rsatishi mumkin bo'lgan xizmatlari, ularning ishlab chiqarish faoliyatida qo'llanilayotgan dastgoxlar va asbob-uskunalarning turi, yangiligi, unumdorligi va boshqa jihatlari oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishning muhim yo'nalishlarining iqtisodiy samaradorlik darajasini belgilaydi.

### **Tahlil va natijalar**

Mahallalarda milliy hunarmandchilik va oilaviy tadbirkorlik korxonalarini rivojlanishining yangi yo'nalishlarining iqtisodiy samaradorligini oshirishga olib boruvchi tadbirlarni tuzishga harakat qildik.

Namangan viloyatida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishda mahalliy-hududiy boshqaruv idoralariga suyangan holda olib borish lozim. Bu ishda viloyatdagi mahalla va qishloq fuqarolar yig'inlari yetakchi bo'lishiga erishish lozim. Ular oilaviy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning markazi bo'lishlari lozim. Chunki,

oilaviy tadbirkorlik asosan mahalliy iqtisodiyotning uzviy qismi bo'lib, ana shu hududdagi muayyan shart-sharoitlar zahirida faoliyat ko'rsatishga moslashgan.

Masalan, oilaviy tadbirkorlik korxonalari ma'lum hududlardagi mavjud ehtiyojlarni e'tiborga olgan holda turli talablarni qondirish uchun tashkil etiladi. Mahalliy hom-ashyo va tabiiy resurslardan foydalanish, ishlab chiqarish xajmiga nisbatan moslashuvchanligi hamda mahalliy bozorga yo'naltirilganligi bilan ajralib turadi.

Bugungi kunda yechimini kutayotgan muammolar talaygina. Tadbirkorlik sub'ektlari ro'yhatga olingandan so'ng litsenziyalar va ruxsatnomalar berish, tadbirkorlarning huquqiy himoya qilish saviyasining pastligi, shartnomaviy sherikchilik munosabatlarini yaxshi yo'lga qo'yilmaganligidandir.

Iqtisodiyotning tuzilmaviy elementi xisoblangan oilaviy tadbirkorlik yangi turdagi ishlab chiqarishni, ilmiy-texnik yangiliklarni o'rgangan holda yangi jihozlar bozorini o'zlashtirib, muhim vazifani bajaradi. Namangan viloyatida oilaviy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish orqali quyidagi samaradorlikka erishish mumkin:

- qarorlar qabul qilishning tezligi va ixchamligi;
- doimiy o'zgarib turuvchi bozor shartlarini hisobga olgan va unga muvofiq, o'z xo'jalik tartibini o'zgartirgan holda faoliyatni va ishlab chiqarish jarayonlarini yengil nazorat qilish va tahlil imkoniyati;
- axborotni to'g'ridan-to'g'ri yetkazish, tez o'zlashtirish va yuz berayotgan o'zgarishlarga tez ta'sir ko'rsatish;
- xususiy aloqalar tadbirkorlikning asosi;
- chiqimlar kamligi, ish haqi fondining, investitsiyalarning kamligi;
- tadbirkorlik ruhi.

Namangan viloyatida mahallalarda oilaviy tadbirkorlik faoliyati rivojlanib borishi bilan birgalikda kelgusida bozorga yaqinroq bo'lgan oilaviy tadbirkorlik korxonalari o'z faoliyatining tor ishlab chiqarish dasturlariga, ilg'or texnologiyalarga, kichik seriyali, ilmga boy maslahatlar ishlab chiqarishga

qaratadilar bu esa, bozor aloqalarini tez o'zlashtirishga olib keladi, tovar va xizmatlar taqchilligini yo'qotadi, iqtisodiyotning umumiy rivojlanishiga yordam beradi;

- yirik korxonalarni monopoliyadan chiqarish, iste'mol tovarlari bozorini qayta tuzish, infratuzilmalar ob'ektlarini rivojlantirishni tezlashtirish;
- iqtisodiy innovatsiya majmuasining asosiga aylanishi;
- aholining, birinchi galda yoshlarning kasbiy texnik darajasini oshirish;
- ishlab chiqarishni qishloq joylarida rivojlantirish, mehnat zahiralariga yaqinlashtirish va milliy ishchi sinfini shakllantirish.

Mahallalarda hunarmandchilik va tadbirkorlikni rivoji Namangan viloyatida va uning tumanlarida aholi bandligi muammolarini yechishda muhim rol o'ynamoqda. aholini ish bilan band qilish orqali katta iqtisodiy samaradorlikka erishiladi.

Namangan viloyatida mahallalarda hunarmandchilik va tadbirkorlikni rivojlantirishning yo'nalishlari samaradorligiga olib boruvchi rag'batlantirish bo'yicha vazifalar quyidagilardan iborat:

- tadbirkorlik faoliyati iqtisodiy va huquqiy asoslarini takomillashtirish;
- bozor infratuzilmalarini rivojlantirish, banklar, moliya, konsalting va yuridik tuzilmalar bilan o'zaro aloqalarni erkinlashtirish;
- eksport imkoniyatlarini kengaytirish, mahsulotlar yetkazishni ta'minlovchi ulgurji bozorlarni shakllantirish;
- oilaviy tadbirkorlik korxonalarini uchun xodimlarni tayyorlash va ularni iqtisodiy va huquqiy bilimlarini oshirish.

Yuqorida aytib o'tilganlardan kelib chiqib, tumanda oilaviy korxonalar samaradorligini oshirish va rivojlantirish jarayonlarini kelgusida faollashtirish uchun quyidagilarga e'tibor qaratish zarurdir:

oilaviy korxonalariga moddiy-texnik zahiralariga ularning erishishini ta'minlash va kreditlashda fuqarolik mulki hisoblangan korxonalarni qo'llab-quvvatlashga differentsial yondashish;

- mahalliy va chet el innovatsiya loyihalari ishlab chiqarish va tarqatishni faollashtirish;

- bozor raqobatbardoshligini ta'minlovchi oilaviy tadbirkorlik korxonalarini ishlab chiqarishini iqtisodiy-tashkiliy boshqaruvini ko'paytirish;

- yangi ishlab chiqarishni tashkil qilish va kengaytirishni chet el investitsiyalarini jalb qilish uchun ish rejalari va biznes loyihalar tuzishda oilaviy tadbirkorlik korxonalariga xizmat ko'rsatuvchi konsalting va axborot-konsultatsiya firmalarini rag'batlantirish lozim.

Oxirgi yillardagi oilaviy tadbirkorlik korxonalarini rivojlanishini tahlil qilish ushbu asosiy omillarni ajratish imkonini beradi:

- oilaviy tadbirkorlik korxonalarini iste'mol bozorini turli-tuman tovarlar va xizmatlar bilan to'ldirishda ko'zga ko'rinarli rol o'ynamoqda, ushbu sektorning ixchamligi va qulayligi hisobiga kundalik tovarlarga bo'lgan so'rovlar defitsiti yo'qotildi, aholi sotib olish imkoniyatini hisobga olib, tovar va xizmatlar takliflarini shakllantirishda differentsial holat kuzatilmoqda;

- mehnat layoqatlilik yoshiga yetgan, davlat korxonalarini va tashkilotlaridan bo'shagan ko'plab yoshlar oilaviy tadbirkorlikda o'z o'rinlarini topmoqdalar;

- tadbirkor tomonidan biznesni yo'lga qo'yishga taraqqiy etgan uslublarning ta'siri, tovarlar sifati va xizmatlar ko'rsatish hisobiga bozorlar kengaymoqda;

- oilaviy tadbirkorlik korxonalarini mahalliy xom-ashyo, materiallar, mineral hom-ashyo zaxiralaridan foydalanish hisobiga import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishni tashkil etish jarayonlariga jalb qilinmoqda;

- oilaviy tadbirkorlik korxonalarida chet el kredit tizimlaridan foydalanish ortmoqda, bu esa, zamonaviy texnologiyalarni yo'lga qo'yish, eksportga mo'ljallangan tovarlar ishlab chiqarish, yangi mahsulotlar ishlab chiqarishni tashkil etishga yordam beradi;

- tadbirkorlar, oilaviy tadbirkorlik sub'ektlariga turli xil xizmatlar ko'rsatish bo'yicha bozor infratuzilmalari tarmog'i shakllanmoqda.

Ushbu vazifalarni bajarish oilaviy tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi

korxonalarining samaradorligini oshirishga turtki beradi va ularning rivojlanishini rag'batlantiradi.

Namangan viloyatidagi oilaviy tadbirkorlik korxonalarining rivojlanishini tahlil qilish va o'rganish natijasida ular soni ko'payib borayotganligi va sifat jihatdan ham yuksalib borayotganligi aniqlandi. Ammo, viloyatda oilaviy tadbirkorlikni rivojlanishida o'ziga xos ba'zi kamchiliklar ham mavjud bo'lib, ularni bartaraf etish bugungi kundagi muhim masalalardan biri hisoblanadi.

Mahallalarda oilaviy tadbirkorlik sub'ektlarining faoliyati samarali tarzda amalga oshirilishi uchun ko'pdan-ko'p omillar ta'sir ko'rsatadi. Uning faoliyatiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar ichida ushbu sub'ektlarni boshqarishni takomillashtirish yo'nalishi muhim ahamiyatga egadir. Amalga oshirilgan tahlillar oilaviy tadbirkorlik korxonalarida hozirgi bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida hamda iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida boshqaruv faoliyati samarasi pastligini ko'rsatdi. Ushbu korxonalarda zamonaviy boshqaruv tamoyillaridan foydalanish darajasining pastligi, boshqaruvning samarali usullari va vositalaridan foydalana bilmaslik natijasida ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish samarasining past bo'lib qolishiga olib bormoqda. Oilaviy tadbirkorlik faoliyati sub'ektlarini boshqarish bilan shug'ullanayotganlar ichida boshqaruv sohasidagi malakasi va tajribasi pastligi bilan ajralib turuvchilar mavjudligi sababli, ularni boshqarish darajasi past bo'lib qolmoqda. Bunday ahvolni bartaraf qilish uchun oilaviy tadbirkorlik korxonalarini faoliyatida boshqaruv faoliyatini samaradorligini oshirish talab etiladi. Hozirgi vaqtda bunday korxonalarda boshqaruv faoliyatini tahlil qilgan xolda, oilaviy tadbirkorlik korxonalarida boshqaruvni takomillashtirish uchun quyidagilarni amalga oshirish lozim deb hisoblaymiz:

Birinchi va dastlabki muammolar oilaviy tadbirkorlik korxonalarini iqtisodiy resurslar bilan ta'minlash masalasidir. Korxonaga agar zaruriy bo'lgan resurslar bilan o'z vaqtida ta'minlanmas ekan, bu korxonaga faoliyatidan samarani kutib bo'lmaydi. Yuqorida tahlil qilingan korxonalarda xom ashyo resursining yetishmasligi, elektr energiya va yonilg'i ta'minotidagi uzilishlar, moliyaviy resurslar taqchilligi, mehnat

resurslarini o'z vaqtida ish haqi va boshqa to'lovlarini to'lay olmaslik singari xolatlar oqibatida korxonalarining faoliyatida samarasizlik yuzaga kelib, hatto bankrot holatiga ham tushib qoldi. Demak, korxonadagi menejerlar avvalambor, o'z korxonaga va tashkilotlarining ta'minotini yaxshilashlari va bu faoliyat turi bilan shug'ullanuvchi xodimlar malakasini doimo takomillashtirish, yaxshilash bilan shug'ullanishlari talab etiladi.

### **Xulosa va takliflar**

Namangan viloyatida oilaviy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun hamda uning salmog'ini oshirish uchun quyidagilarga katta ahamiyat berish zarur:

1. Lizing usullarini takomillashtirish.
2. Investitsiya tavakkalchiligini sug'urtalashni takomillashtirish.
3. Oilaviy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash uchun tijorat va xususiy banklarini takomillashtirish.

Oilaviy korxonalar faoliyatidagi yana bir dolzab muammolardan biri tadbirkorlik sektori investitsiya va eksport sohasidagi imkoniyatlarini reklama-axborot jihatidan ta'minlash hozirgi talablarga unchalik javob bermaydi. Bozorlarning ishlab chiqarish rejalashtirilayotgan mahsulotlarning xajmini baholash, ehtimol tutilayotgan raqobatchilarning narx-navo va ishlab chiqarish sohasidagi siyosatini rejalashtira olish uchun tajribada kerak bo'ladigan ma'lumotlar majmuasi, xom ashyo va resurslar sohasidagi imkoniyatlar, yangi ishlab chiqarishlarni rivojlantirishning ekologik okibatlari va hokazolar bo'yicha axborotning yetishmayotganligi loyihalarni puxta ishlab chiqishga ta'sir ko'rsatmoqda. Ko'pchilik tadbirkorlar uchun zamonaviy uskunalari va texnologiyalarni, chet ellik sheriklarini izlash hamda o'z mahsulotlari bilan tashqi bozorlarga chiqish juda qiyin kechmoqda.

Oilaviy tadbirkorlik faoliyatini to'g'ri tashkil etish va boshqarish oilaviy tadbirkorlikning rivojlanishi uchun zarur shartlardan biridir. To'g'ri tashkil etilgan boshqaruv jarayoni mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish orqali



daromadlarning ko'paytirishga olib keladi.

Ushbu tadbirlarni samarali tarzda amalga oshirilishi mamlakatimizdagi oilaviy tadbirkorlik korxonalarini va sub'ektlarining iqtisodiy samaradorligini oshirishga olib boradi.

Bu ishlarni amalga oshirilishi natijasida oilaviy biznes faoliyati samaradorligi yanada ortadi va iqtisodiyot rivojiga ta'siri kuchayadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:**

[1] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Bozor islohotlarini chuqurlashtirish va iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish sohasida ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirilishini jadallashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. «Xalq so'zi», 2005, 15 iyun.

[2] I.A.Karimov. 2012 yil vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi. Toshkent, "O'zbekiston", 2012 y.

[3] O'zbekiston Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2015 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi.

[4] Maxmudov E.X. Isakov M.Yu. «Korxonalar iqtisodiyoti» (O'quv qo'llanma) - T.: TDIU, 2006

[5] I.Maxkamov, O.Kozokov, X.Xurramova "Oilaviy tadbirkorlikni tashkil etish va rivojlantirish" Monografiya.2013

[6] O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi ma'lumotlari (2000-2015 yillar).